

## MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARIDA VATAN MADHI, YOSHLARDA VATANPARVARLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH

O`rinov Odilbek Laziz o`g`li

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada o'zbek xalqining ardoqli farzandlari bo'lgan ajdodlarimiz o'z ijodlarida vatanparvarlik tuyg'usini namoyon qila olganligi Vatan taraqqiyoti, millat obro'siga hissa qo'shish, fidoyilik, halollik bilan mehnat qilish, xalqning shon-shuhrati, elu-yurt ravnaqi uchun kurashish his-tuyg'ularini yuksaltirish, milliy qadriyatlar haqida so'z boradi.*

**Аннотация:** *в данной статье говорится о развитии Родины, вкладе в репутацию нации, самоотверженности, честном труде, воспитании чувств борьбы во славу народа, развитию страны, национальных ценностях.*

**Annotation:** *this article talks about the development of the Motherland, contribution to the reputation of the nation, selflessness, honest work, education of feelings of struggle for the glory of the people, development of the country, national values.*

**Kalit so'zlar:** *vatan, vatanparvarlik, sadoqat, yurtga xizmat qilish, mehnat.*

**Ключевые слова:** *родина, патриотизм, верность, служение Отечеству, труд.*

**Key words:** *homeland, patriotism, loyalty, service to the country, work.*

Yangi O'zbekiston ravnaqi, kelajak strategiyasi haqida fikr yuritilar ekan, butun respublika ta'lim tizimida katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Pedagoglar hamda ijtimoiy institutlar bu islohotlar taqdim etgan axborot kommunikativ va ilg'or o'quv texnologiyalari, modullashtirilgan hamda zamonaviy ta'lim usullari yordamida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma'naviy-axloqiy takomillashtirish, chuqur fuqarolik tuyg'usini shakllantirish, yot mafkuraviy ta'sirlardan himoyalovchi g'oyaviy immunitet hosil qilish va o'qitish samaradorligini ta'minlashdan iborat. Shu bois yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash, ularda vatani va eli bilan faxrlanish, himoyasiga shay turish tuyg'usini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunki, O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosati milliylik xarakteriga egaligi bilan ajralib turadi. Insoniylik tamoyili asosida tashkil etiladigan ta'lim jarayoni talabalar erkin rivojlanishini ta'minlashi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2020-yil 30-iyundagi PQ-4768-son Qarori qabul qilingandan so'ng mamlakatimiz ta'lim tizimida, xususan, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ijtimoiy institutlarning o'rni keng qamrovli ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda

ijtimoiy institutlarining roli va talalbalrni mustaqil ishlashga o'rgatish dolzarb masala sanaladi.

Yangi O'zbekistonning iqtisodiy va ma'naviy takomilligining barcha sohalari rivojiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga adabiyot va adiblar oldiga ulkan ma'suliyatli vazifalarni qo'ydi. O'sib kelayotgan yosh avlod elim, yurtim deb yashashi, vatanimizning gullab-yashnashi buyuk kelajakka ishonch ruhida tarbiyalanishi ko'p jihatdan ta'lim-tarbiya jarayoniga bog'liq. Ushbu ulkan ishlarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi qonun va farmonlarga ko'ra ta'limning mazmuni va boshqaruvini milliy qadriyatlar, tarixiy, ma'naviy tarbiyaga mos tarzda tanlash va tashkil etish zarurati qo'yildi.

Ma'lumki, xalqimizning kelajagi, mamlakatning istiqboldagi taraqqiyoti farzandlarimizning qanday rivojlanishiga bog'liq. O'zbek xalqining ardoqli farzandlari bo'lgan ajdodlarimiz o'zlarida vatanparvarlik tuyg'usini namoyon qila olgan. Jumladan Muhammad Yusuf alohida o'ringa ega masalan:

#### VATANIM

Men dunyoni nima qildim,  
O`zing yorug` jahonim.  
O`zim xoqon,  
O`zim sulton  
Sen taxti Sulaymonim.  
Yolg`izim, Yagonam deymi,  
Topingan koshonam deymi,  
O`zing mening ulug`lardan  
Ulug`imsan, Vatanim...

Sen Mashrabsan,  
Xalqda tumor,  
Balxda dorga osilgan.  
Navoiysan, shoh yonida  
Faqirni duo qilgan.  
Yassaviysan, meniki deb,  
Ko`ringan da'vo qilgan,  
Ming bir yo`i ochilmagan  
Qo`rig`imsan, Vatanim...

Sen Xo`jandsan,  
Chingizlarga Darbozasin ochmagan,  
Temur Malik orqasidan  
Sirdaryoga sakragan.  
Muqannasan qorachig`i

Olovlarga sachragan,  
Shiroqlarni ko`rgan cho`pon:  
Cho`lig`imsan, Vatanim.

Kim Qashqarni qildi makon,  
Kim Enasoy tomonda,  
Jaloliddin — Kurdistonda,  
Boburing — Hindistonda,  
Bu qanday yuz qarolik deb,  
Yotarlar zimistonda.  
Tarqab ketgan to`qson olti  
Urug`imsan, Vatanim...

O`g`lim, desang osmonlarga  
G`irot bo`lib uchgayman,  
Chambil yurtda Alpomishga  
Navkar bo`lib tushgayman,  
Padarkushdan pana qilib  
Ulug`beking quchgayman,  
G`ichir-g`ichir tishimdagi  
So`lig`imsan, Vatanim...

Muhammad Yusufning bu she`ri asosida yaratilgan qo`shiqni eshitmagan, uni xonandaga jo`r bo`lib birga aytmagan yurtdoshimiz kam topiladi. Bastakor she`r matniga — mazmun-mohiyatiga shunchalar mos, ohangdosh musiqa topganki, go`yo shoir oldindan shu musiqani xirgoyi qilib ash`or bitganday. She`rdagi mazmun va ohang rivoji (dinamizmi) musiqada ikkinchi umrini boshlaydi, xonanda ovozi goh kuchayib, goh pasayib o`zbekning tarixiy ko`tarilish va tanazzul bosqichlarini ifoda etadi.

Aslida, Vatan to`g`risidagi, yurtimiz tarixida o`tgan ulug`lar nomlarini birma-bir sanab, moziyda bo`lgan voqealarni eslab, ularga hamd-u sanolar aytish tarzida yozilgan she`rlarning soni bor-u sanog`i yo`q. Ularning deyarli barchasida Amir Temur, Manguberdi, Navoiy va Boburlar, Cho`lpon va Fitratlar albatta tilga olinadi, hammaga ma`lum sifat va o`xshatishlar orqali ular ulug`lanadi. Biroq nima uchun ularning birortasi Muhammad Yusuf she`ri singari mashhur bo`lmadi? Nega bu she`riy tizmalar millionlar ko`ngliga jonli his bo`lib ko`chib o`tmadi?

Demak, Vatan to`g`risida kuylash ham har xil bo`lar ekan-da. Bu she`r-u qo`shiqning ham samimiysi, yurakdan chiqib yurakka boradigani va... aksincha ta`sir qiladigani bo`lar ekan-da. Ozod Sharafiddinovning inson qalbidagi Vatan tuyg`usi, unga sadoqat hislariga bag`ishlangan «O`lsam ayrilmasman quchoqlaringdan» maqolasida olim amalda emas, balki ko`proq og`izda «vatanparvarlik» qiladiganlardan ozurda ko`nglini to`kib solgan. Boyagi she`rlarni ham «Vatan mavzusida ham yozib turish kerak, ajabmas qo`shiq bo`lib

qolsa, agar mashhurroq qo`shiqqa aylanib ketsa, davlat biror unvon berib qolsa qani...» qabilidagi o`ylar ortidan «dunyoga kelgan», biroq tug`iliboq shu on jon bergan chalajon, rangpar tizmalardir, deyish mumkin. Chunki Vatanni tama bilan, pisanda bilan sevish mumkin bo`lmaganidek, u haqda ayni maqsadlar bilan yozib ham, kuylab ham bo`lmaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. B.To`xliyev “ Adabiyot o`qitish metodikasi” Toshkent. 2008.
2. Mirvaliyev S. “O`zbek adiblari” Toshkent: “Fan”, 1993.
3. Muhammad Yusuf “Saylanma” Toshkent: “Sharq”, 2012
4. Muhammad Yusuf “Shoir sevgisi” Toshkent: “Noshir”, 2014.
5. Olimov T.X. Ėshlarda o`zlikni anglashni shakllantirish // Ta`lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar.–Toshkent, 2016. - №4. - B.118 -121. (13.00.00. 01.07.2011. №1).
6. Olimov T.X. Sharq mutafakkirlari ijodida fuqarolik jamiyati va madaniyatini rivojlantirish masalalari //Pedagogik mahorat – Buxoro, 2019. - №2. - B. 85-88 (13.00.00. №23).